

RANGTASVIRDA TURLI USLUB VA OQIMLARNING SHAKLLANISHI, REALIZM YO‘NALISHIDA ISHLASHNING AHAMIYATI

Hayitboyev Diyorbek Jonibekovich

Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi,
Pedagogika fakulteti TS va MG kafedrası katta o‘qituvchisi,
E-mail: hayitbayev78@mail.ru

Nazarova Zuhra O‘rinboy qizi

Urganch davlat universiteti, Pedagogika fakulteti
Rangtasvir yo‘nalishi 3-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tasviriy san‘at turlarining asosiy bosqichlaridan bo‘lgan rangtasvir yo‘nalishining tarixi, ishlanish uslublari va shu bilan bir qatorda rangtasvirning asosiy oqimlaridan biri bo‘lgan realizm san‘ati haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Maqolaning asosiy qismi realizm san‘atiga qaratilgan bo‘lib, bunda ushbu oqimning paydo bo‘lishi, rivojlanishi, hayotiy voqealarni badiiy uslubda real tasvirlanganligi tarixiy manbalar asosida yoritilgan.

Kalit so‘z: Tasviriy san‘at, rangtasvir, rangtasvir turlari, janr, portret, perspektiva, ranglar koloriti, estetika, realizm, naturalizm, natura, kompozitsiya.

Tasviriy san‘at turlarining asosiylaridan biri hisoblanadigan rangtasvir – faqat ranglar orqaligina voqelikni badiiy tasvirlaydigan, rassom o‘z ichki hissiyotlari, tabiatning nodir ko‘rinishlari, ham estetik did, ham falsafiy fikrlar orqali tomoshabin fikri va tuyg‘ulariga ta’sir o‘tkazuvchi san‘atdir. Rangtasvirning boshqa san‘at turlaridan ajralib turuvchi xususiyatlari ham aynan shundan iborat.

Rangtasvirni o‘rganishda rassom o‘z tasavvurlarini va ichki dunyosini tasvirlash, biron-bir voqea hodisani badiiy ko‘rinishda aks ettirish bilan birga jamiyatga falsafiy, tarbiyaviy va tanqidiy fikrlarini so‘zsiz, ranglar orqali erkin yetkazib berish qobiliyatini rivojlantiradi. Bunda o‘z-o‘zidan o‘rganuvchida badiiy estetika, tasavvur kengligi, ijodkorlik xususiyatlarini shakllantiradi. Rangtasvir sohasini o‘qitishda borliqni (tabiat manzaralari, natyurmort, inson qomati) haqqoniy tasvirlashga o‘rgatish mashg‘ulotlari yoshlarning umumiy dunyoqarashlarini o‘stirishda katta ahamiyatga egadir.

Bunda atrofdagi jismlarning hajmini haqqoniy tasvirlash ranglar, ularning konstruktiv tuzilishi, buyumlarning nisbatlari, perspektiva (qisqarish) qonuniyatlarini

nazariy jihatdan o'rgatadi, hamda borliqni hajm, nur soya, ranglarning uyg'unlashuvini erkin farqlay olish uchun ham xizmat qiladi.


Rangtasvir asarlarini yaratishda uning ishlanish o'rni, mazmuni, bajaradigan vazifasi, uslubi va ko'inishiga qarab turlarga bo'linadi. Bular, mahobatli rangtasvir, dekorativ rangtasvir, dastgohli rangtasvir, miniatyura. Tasvir mavzusi va mazmuniga qarab esa bir qator janrlarga ajraladi. Dunyodagi ob'ektlar, voqea va hodisalarning turli tumanligi va rassomlardagi ularga bo'lgan qiziqishi kuchayib ketishi XVII asrga kelib rangtasvirda portret, manzara, natyurmort, animalistik, tarixiy, batal, maishiy, marinistik va mifologik janrlarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Portret janri



Maishiy janr

Manzara janri





Animal janr

Botal janri



Natyurmort janri



Rangtasvir asarini tasvirlashda janrlar yoki ularning elementlari aralashib ketishi mumkin. Masalan, natyurmort va manzara portretni muvaffaqiyatli to'ldirishi mumkin. Bu albatta, ijodkorning mavzu tanlashida, naturani atrofidagi predmetlarini joylashtirishda qanchalik badiiy yondoshishi asarda ham natyurmort, ham manzara bilan portret janrining shunchalik nafis uyg'unlashuvini ta'minlaydi.

Tasviriy san'atda asar yaratishdan oldin uni qaysi janrda, qanday usulda tasvirlash, undagi ranglar koloritini to'g'ri tanlash jarayonida amaliy bilimdan tashqari nazariy bilimga ham ega bo'lish qat'iy talab etiladi. "Kimda-kim ilmni amaliyotsiz

tasavvur etsa, — u bamisoli suzishga eshkaksiz chiqayotgan qayiq haydovchisidir va u hech qachon qayerga ketayotganligiga to‘la ishonch hosil qila olmaydi,— deya ta’kidlagan Leonardo da Vinchi.— Ayniqsa rangtasvir sohasida amaliyot hamisha kuchli nazariyot bilan bog‘liq holda amalga oshirilishi zarur va bularsiz hech narsaga erishib bo‘lmaydi”¹.

Shunday ekan tasviriy san’at tarixi, uning paydo bo‘lishi, janrlar va uslublarning vujudga kelishi, rivojlanishi to‘g‘risida har bir ijodkor yoshlar to‘liq ma’lumotga ega bo‘lishi lozim.

Turli xil uslublar, janrlar, yo‘nalishlar qadimgi dunyo san’atida ham, hatto ibtidoiy jamoa davrida yaratilgan rangtasvir namunalarida ham mavjud bo‘lgan. Rangli tasvirlar qadimda so‘nggi paleolit davrida (miloddan avvalgi 40-8 ming yilliklar) paydo bo‘lgan. Janubiy Fransiya (Fon de Gom, Lasko), Shimoliy Ispaniya (Altamira), O‘rta Osiyo va boshqa yerlarda rangtasvir asarlari namunalari saqlanib qolgan. Mezolit va neolit davrida bajarilgan ibtidoiy rasmlarda murakkab kompozitsiyalar, abstrak tushunchalar paydo bo‘la boshlagan.

Antik davrda me’morchilik va haykaltaroshlik bilan uyg‘unlashgan Rangtasvir diniy mazmun va g‘oyalarda rivojlandi, nur-soya, chiziq va havo perspektivasi yuzaga keldi. Rangtasvir janrlardan tashqari bir qancha uslub va yo‘nalishlar paydo bo‘ldi. Miloddan avvalgi V asrda Yunonistonda mum rassomligi (enkaustika) dagi dastgoh rassomligi haqida fayyum portretlarini misol keltirishimiz mumkin. Shu bilan birin ketin rangtasvirning turli oqimlari paydo bo‘la boshladi.

Мастера искусства об искусстве. М., 1936, Т.1, 124-бет

Uyg‘onish davrida (XIV-XVII asrlar) rangtasvirning ilmiy asoslarga tayangan holda realistik san’at kamol topdi. Perspektiva, optika, plastik anatomiya borasida yutuqlarga erishildi. Leonardo da Vinchi, Rafael Santi, Mikelandjelo, Dyurer, Jotto, Donatello, Titsian va boshqalar bu davrning buyuk rassom va haykaltaroshlaridan bir hisoblangan.

XVI asr o‘rtalarida Yevropa va Amerika san’atida shakllangan uslublardan biri Barokko (ital.. barocco – ajoyin, g‘alati) san’ati uyg‘onish davrining madaniyati va subyektiv his-tuyg‘ularini ifodalovchi manerizm o‘rniga vujudga kelgan. Barokko san’ati aristokratiya va cherkov shon-shuhratini oshirishga hamda targ‘ib etishga qaratilgan uslub.

XIX asr boshlaridan XX asr oxirlarigacha bo‘lgan davrda rangtasvir oqimlari tobora ortib, o‘zaro raqobat ostida rivojlandi. O‘zaro bir-birini inkor qiluvchi, rassom tasavvurining erkinligini targ‘ib etuvchi, tushunish oson bo‘lgan yoki anglab bo‘lmaydigan, tomoshabinni o‘ylashga majbur qiluvchi va jamiyatdagi voqea-hodisalarni tandiq etuvchi, biror g‘oyaga undovchi oqimlar paydo bo‘lishi orqali rangtasvir san’ati har tomonlama sayqallandi. Realizm, avangardizm, manerizm,

modernizm, imperssionizm, postimperssionizm, kubizm, syurrealizm, abstraksionizm, romantizm, klassitsizm kabi turli xil oqimlar ijod erkinligini oshirdi.

Rangtasvirning asosiy oqimi sifatida realizm usuli boshqa oqimlarning dastlabki ko‘rinishidir. Tasviriy san‘at ilk paydo bo‘lishidan faqat borliqda mavjud bo‘lgan predmetlar, hodisalar jarayoni haqqoniy va hech qanday haqiqatga zid bo‘lgan qo‘shimchalarsiz tasvirlangan. Shuning uchun realizm uslubini oqimlarning boshlang‘ich nuqtasi deyish mumkin. Boshqa yo‘nalishlarda rasm chizish qobiliyati mukammal bo‘lmasada ijodkorlik hislatlari yuqori bo‘lgan har qanday inson ijod qilishi mumkin. Lekin realizm va unga o‘xshagan oqimlarda haqqoniy predmetlar, ranglar nisbiyligi, hajm va perspektiva mutanosibligiga amal qilgan holda ham ijodiy, ham badiiy estetika baxsh eta oladigan asar yaratish juda katta malakaviy bilim va iste’dod talab qiladi.

San‘atshunoslikda “realizm” tushunchasi turlicha qarashlarda o‘ziga hos fikrlar mavjud. Tasviriy san‘atda borliqdagi voqea hodisalarni har tomonlama badiiy ijodkorlik bilan haqqoniy va ob‘ektiv aks ettirish realizm usuli deyiladi.

Realizm oqimi Yevropa san‘atida XVIII asrda paydo bo‘lgan va shu asr oxirlaridan boshlab asosiy oqimlardan biri hisoblangan. Lekin aslida XIX asr o‘rtalarida tasviriy san‘atda “realizm” termini qo‘llanila boshlangan. Uyg‘onish davrida G‘arbiy Yevropada realizm usuli va qonuniyatlarida bir qator rassomlar keng ijod qilishgan.



Pieter de Hooch, Yotoq xona, 1658-1660



Jan Baptiste Greuze, kir yuvuvchi, 1761

Bir tomondan olib qaraganda badiiy obrazning asosiy mazmuni uning real ob‘ektga o‘xshashligi emas, balki uning naturalligidadir. Ushbu vaziyatda realizm akademik rangtasvirga nisbatan ham real ko‘rinishda tasvirlanishi mumkin. Shunday

ekan, kichik gollandlar naturalizmi va impersionizmiga ham real ijod dep qarash mumkin. Hayotiy voqea-hodisalarni tub-tubiga kirmasdan turib, faqat tashqi o'xshashlikka e'tibor qaratadigan naturalizm o'zining hayotiyliigi va haqiqiyiligini yo'qotadi. Abstrakt fikr esa tasvirlanayotgan asarda ob'ekt yoki hodisaning eng chuqur haqiqatini namoyon qilishi mumkin.

Realizmda esa borliqni aks ettirishdagi ishonarlilik metodi uning eng ahamiyatli jihatlaridan biridir. Ushbu san'atda ijod qilgan rassomlardan Mazachcho va Della Francheska, Dyurer va Rembrandt, Jan Baptiste, I.Repin, V.Surikov va V.Serovlarning realizm asarlari bir-biridan farqi juda katta. Bu, albatta, realizm san'atida ishlashning ijodiy imkoniyatlari juda ko'pligi jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi.



I.Repin, "kutmagan edilar", 1884-1888.



A.Dyurer, avtoportret, 1498.



V.Surikov, Boyar ayol Marozova, 1887.

XIX asrda realizmda yaratilgan asarlarda rassomlar har bir predmet va unurni ma'lum bir ma'noli, ifodali va asar g'oyasini ochib berishi uchun harakat qildilar. Ushbu davr realizmi tanqidiy realizm dep nom oldi. Chunki, umumiy mazmun, xususiyati hayotning oq va qora tomonlarini yaqqol olib chiqish, inson xarakterini ifodalashda hayot qiyinchiliklarini, siyosiy va sotsial jarayonlarning og'ir vaziyatlarini va tarixiy shart-sharoitlarni hayotga yaqin qilib tasvirlash yorqin tus oldi.



O'zbekiston zamonaviy tasviriy san'atida realizmning shakllanish davri XIX asr oxiri – XX asr boshlariga to'g'ri keladi. Bu yo'nalish yurtimizda siyosiy-demokratik jarayonlar, ma'rifatparvarlik harakatlari zamirida kamol topdi.

XX asrning 50-90 yillarida milliy realistik san'at P.Benkov, Z.Inog'omov, N.Kashina, S.Abdullayev, L.Nasriddinov, B.Hamdamiy va boshqa rassomlar asarlarida rivoj topdi. O'zbekiston realist rassomlari ilg'or qarashlar va yangi ijodiy g'oyalar bilan realizmni yangi imkoniyatlar bilan boyitmoqda.

Z.Inog'omov, Choyga.



N.Kashina Yoz ne'matlari.



P.Benkov, Paxta chopig'i

Realistik san'at har bir o'rganuvchiga borliqni haqiqiy voqea-hodisalarini aniq va real ranglarda ko'ra olish va uni qog'ozga tushirish jarayonida obrazlarning ichki tuyg'ularini tasvir yuzasida aks ettira olish qobiliyatini shakllantiradi

Realizm har davrda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, tanqidiy va ma'rifiy mavzularda rassomlar asarlarida namoyon bo'lgan. Masalan, Pavel Benkov asarlarida ham oddiy o'zbek xalqining sodda odamlari, oddiy turmush tarzi yoki mehnat jarayoni, tarixiy obidalar va go'zal manzaralarida ranglar koloriti asar ma'nosi va undagi obrazlar xarakteriga nisbatan mos qilib tanlangan.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, realizm – hayotni anglab yetishdagi ma'naviy vosita bo'lib, dunyo san'at an'alarini o'zida mujassamlashtirib, insoniyatni badiiy madaniyati rivojlanishida alohida ahamiyat kasb etadi. Realizm asar realligi borliqning muhim tomonlarini, nozik qirralarini badiiy stilda yuksak mahorat bilan insoniyat hayotiga aralashuvi bilan o'lchanadi. Ya'ni realizm jamiyat va unda yashab turgan inson shaxsi, undagi sotsial jarayon bilan aloqadorlikda o'rganadi. Unda ijod qilgan har qanday rassom ijodiy fikrlarini real hayotdagi voqelikka badiiy shaklda bog'lagan holda o'z asarlarida bayon qiladi. Bu hayotiy hodisalarning har bir onidan go'zallik yarata olish imkoniyatini taqdim etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Мастера искусства об искусстве. М., 1936, Т-1. 124 ст.
2. Taktash R.X., Izobrazitelnoye iskusstvo Uzbekistana, T., 1972; Iskusstvo Sovetskogo Uzbekistana, M., 1976.
3. “Rangtasvir” Ўқув қўлланма. (Соибов Т.З. ТАҚИ, 2007 й. 64 бет.)
4. Rangtasvir. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. T.: “SHARQ”, 2007.
5. “Rangtasvir/darslik/.-T.: “INNOVATSIYA -ZIYO”, 2019.-178 b.